



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Saydxodjayeva Nigorahon Ibaydullaevna

"Iqtisodiyot" kafedrası katta o'qituvchisi University of economics and pedagogy NOTM

saidhodjaevanigorahon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirishni mamlakatning iqtisodiy- ijtimoiy hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar hamda sohani rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan islohotlar natijasida viloyat iqtisodiy o'sish darajasining ortishi haqida bayon etilgan. Shuningdek, viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar o'rganilib, ular yuzasidan xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik subyektlari, zamonaviy bozor iqtisodiyoti, mahalliy ehtiyojlar, eksport-import operatsiyalari, daromad omili, bandlik omili, mahsulot va sifat omili.

Аннотация: В данной статье, исходя из важности развития и расширения деятельности малого бизнеса и частного предпринимательства в новом Узбекистане в экономико-социальной жизни страны, факторов, влияющих на развитие малого бизнеса и частного предпринимательства, а также в результате проводимых реформ по развитию отрасли, описывается повышение уровня экономического роста области. Также изучены факторы, влияющие на развитие малого бизнеса и частного предпринимательства в области, даны выводы по ним.

Ключевые слова: малый бизнес и частное предпринимательство, хозяйствующие субъекты, современная рыночная экономика, местные потребности, экспортно-импортные операции, фактор доходов, фактор занятости, фактор продукции и качества.

Annotation: This article, based on the importance of the development and expansion of small business and private entrepreneurship in the new Uzbekistan in the economic and social life of the country, factors affecting the development of small business and private entrepreneurship, as well as as a result of ongoing industry development reforms, describes the increase in the level of economic growth of the region. The factors influencing the development of small business and private entrepreneurship in the region are also studied, and conclusions are given on them.

Keywords: small business and private entrepreneurship, economic entities, modern market economy, local needs, export-import operations, income factor, employment factor, product and quality factor.

Agar dunyo tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida yirik korxonalar soni kamayib, kichik korxonalar soni keskin o'sdi. Chunki,



kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari bozor iqtisodiyoti talablariga tezda moslashib, innovatsiyalarni o'zlashtirishda ilg'or bo'lib bormoqda. Shu bois, mamlakatimizda xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayapti. Bozor dinamikasi va o'zgarishlariga bunday moslashish tadbirkorlikning rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mahalliy ehtiyojlarni to'liq qoplash va mahsulotlarni eksport qilishdagi ahamiyati hisobga olinib, mazkur sektorni rivojlantirish bo'yicha strategiya va yo'l xaritalari ishlab chiqildi va izchil amalga oshirilayapti. Bu jarayonlarning barchasi iqtisodiyotni jadal rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo'ladi. Ko'rilgan chora-tadbirlar va muhim qarorlar qabul qilinishi natijasida o'tgan so'nggi bir yil davomida kichik tadbirkorlar soni 40 ming taga ko'paydi va ularning umumiy soni 490 ming tani tashkil qilayapti. O'rta

tadbirkorlar soni esa 2 mingtaga oshib, hozirda ularning soni 10 mingtaga yetdi. Yirik korxonalar soni ham o'tgan qisqa davrda 400 taga ko'paydi. Endilikda ularning umumiy soni 1500 ta bo'ldi.

Albatta, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida huquqiy asoslar bilan birga, uning moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi ham muhim ahamiyatga ega. Kichik biznes sub'yektlari loyihalarini moliyalashtirishga tadbirkor 10 foiz investitsiya kiritisa, qolgan 90 foizini yangi tashkil etilgan "Biznesni rivojlantirish banki" hamda davlat tomonidan moliyaviy resurs yo'naltiriladi. Bu tadbirkorlar uchun ulkan rag'bat bo'lib, o'z tashabbuslarini amalga oshirish uchun keng maydon yaratadi.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022 yil 21 aprelda qabul qilingan "2022-2026 yillarda Andijon viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori ham viloyat iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirish, viloyatda iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash hamda xususiy sektorni qo'llab quvvatlash va rivojlantirish kabi ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan quyidagi omillarni rivojlantirishga olib kelmoqda:

birinchidan: aholining daromad omili sifatida hayot darajasini yuksalishiga olib keladi;

ikkinchidan: ish bilan bandlik omili sifatida ishsizlikni kamaytirishga olib keladi;

uchinchidan: mahsulot va xizmat omili sifatida diversifikatsiyalashga olib keladi. Bundan tashqari, kichik biznes ishlab chiqaruvchilarida yirik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan ishlab chiqarish xarajatlarini tejash imkoniyatlari yuqori, shuning uchun, kichik biznes va tadbirkorlikda boshqaruvni to'g'ri tashkil qilinishi bozorni arzon va sifatli maxsulot bilan to'ldirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'z navbatida, bozorda raqobat muhitini shakllantirib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksportbop va import o'rnini bosuvchi tovarlar darajasiga yetishini ta'minlaydi. Bu bilan xalqimiz uchun arzon va sifatli mahsulotlar yetkazib berish orqali ularni davlat va jamiyatdan rozi qilish imkoniyati tug'iladi.



2023 yilda respublikada tadbirkorlik, uning kichik biznes shakli bilan band bo'lgan korxonalar soni 411 mingdan oshdi. Ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 66,7 foizni tashkil etdi.

Andijon viloyati misolida o'rganib chiqadigan bo'lsak, xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yuritish uchun viloyatdagi imkoniyatlar, muammo va kamchiliklarni quyidagi holatlarda ko'rish mumkin:

1.-jadval

Viloyatda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun:

Imkoniyatlar Kamchiliklar

Aholi zichligi Ish kuchlari malakasiz

Viloyat qishloq xo'jaligiga asoslangan

hudud Geografik joylashuv (viloyatlar va

davlatlarni bog'lovchi katta magistral

yo'lda emasligi)

Tabiiy iqlim sharoit qulayligi Tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun beriladigan yer maydonining ozligi (10

sotix: o'rtacha 1 yillik daromad 5 mln.ni tashkil qiladi)

Azaliy qadriyatlarni avloddan avlodga

o'tishi Xom-ashyo va materiallar yetishmasligi

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, Andijon viloyatida ham kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish va kengaytirish choralarini ko'rish zaruriyati mavjud.

2023 yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'yektlari soni 678 tani tashkil etdi. Bu esa, o'z navbatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qator Qaror va Farmonlar qabul qilinishi natijasida mamlakatimizda tadbirkorlik sub'yektlarini huquqiy himoya qilish tizimini izchil takomillashib borayotganligini ko'rsatadi.

Viloyatda 2017 yilda 10 ta loyihada 11,1 mln.dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022 yilga kelib 39 ta loyihada 428,4 mln. dollarni tashkil etdi yoki 2017 yilga nisbatan 38 barobarga o'sishiga erishildi. Shuningdek 2022 yilda, umumiy qiymati 189,3 mln dollar bo'lgan 18 ta loyiha foydalanishga topshirilib, 6 840 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Andijon viloyatida 2017 yilda jami 166 ta korxona tomonidan 128 mln dollar eksport amalga oshirilgan bo'lsa, 2022 yilga kelib eksportyor korxonalar soni 449 taga yetgan va ular tomonidan jami 758,3 mln dollarlik eksport operatsiyalarini amalga oshirishga erishildi.

2023 yil uchun jami 914 mlrd. dollar miqdorida eksport hajmi; shundan 824,4 mlrd. dollar sanoat mahsulotlari va 90 mln. dollar meva-sabzavot mahsulotlarini eksportini amalga oshirish belgilandi va ko'zlangan maqsadga (eksport bo'yicha reja 119 foizga bajarildi) erishildi.

O'tgan 6 yil davomida eksportchi korxonalar soni 6 barobarga ortib, eksport ko'rsatkichlari esa 7 barobarga ortishiga erishildi. Shuningdek, 2017 yilda dunyoning 22 ta



davlatiga 18 xil turdagi mahsulotlar eksport qilingan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2022 yilga kelib, dunyoning 53 ta mamlakatiga 85 xil mahsulotlar eksporti yo'lga qo'yildi.

Birgina, 2022 yilga kelib, ilk bora Yevropaning 6 ta davlatiga 25 mln dollarlik mahsulotlar eksport qilinishiga erishildi. 2023 yil yakuni bilan viloyatda 1 mlrd dollarlik mahsulotlar eksport qilinishi rejalashtirilgan bo'lib, bu reja to'liqligicha amalga oshirildi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida, jumladan Andijon viloyatida xususiy tadbirkorlik, kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tashkil etilmoqda. Shu bilan kichik korxonalarning

iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati ortib bormoqda. Ko'rilayotgan ushbu chora-tadbirlar hududlarning yo'l-transport, elektr, aloqa va turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda kichik va o'rta shaharlarni rivojlantirish, mahallalarni sanoatlashtirish, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va rivojlantirishga xizmat qilishi bilan birga, aholining bandligi hamda doimiy daromad manbaiga ega bo'lishida ham muhim omildir. Bu zanjirning bir butun bo'lishi iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Iqtisodiy o'sish, o'z navbatida, farovonlik olib keladi.

Fikrimizcha, iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan, ko'pchilik mamlakatlarda kichik biznes sektori rivoji uchun quyidagi to'siqlar halaqit qiladi:

Kichik biznes subyektlari ichidagi to'siqlar: mablag'lar yetishmasligi; zamonaviy menejment, moliyaviy va marketing tahlili tamoyillarini o'z ichiga oluvchi biznes yuritish usullarini tushunishning cheklanganligi; ijodiy va innovatsion yondashuv bilan tavakkallik qilmaslik; o'z mamlakati va xorijda sherik topish bo'yicha tajriba va bilimlarning yetishmasligi; menejmlarning tavakkalchilikka kam moyilligi.

Kichik biznes sektori iqtisodiy va ijtimoiy muhiti doirasidagi to'siqlar: soliq rag'batlarining, kreditlashning adekvat manbalarining yetishmasligi; kreditlashning noqulay shartlari (yuqori foiz stavkalari, qaytarishning qisqa muddatlari); tijorat banklarida mayda subyektlarga nisbatan qiziqishning yo'qligi; qonuniy va iqtisodiy tizimning beqarorligi.

Bevosita to'siqlar: inflyatsiyaning o'sish darajasi, yetarlicha rivojlangan mustaqil raqobatdosh bozor va bozor mahsulotlarini shakllanmaganligi; moliyaviy va sug'urta tizimi infratuzilmasining rivojlanmaganligi; ko'rgazma, yarmarka yoki investitsion forumlarda yetarlicha qatnashmaslik; mamlakat ichida va tashqi dunyo bilan bog'lanishda arzon samarali aloqa vositalarining yetishmasligi; korrupsiya va xufyona iqtisodiyot mavqeining balandligi.

Bilvosita to'siqlar: axborot bilan ta'minlash, o'qitish va maslahat berish bo'yicha ixtisoslashgan xizmatlarning kamligi va mavjudlarining ham qimmatligi; kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha har xil vazifalarni amalga oshirishda faoliyat sohalarida noaniqlik mavjudligi; mamlakatlararo foydani harakatlantirish, tasarruf etish bo'yicha xalqaro darajadagi unifikatsiyalashgan meyoriy bazaning yo'qligi.

Aytish joizki, yuqorida ta'kidlab o'tilgan kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy asoslari mavzuni amaliy jihatlar va uni baholashda asosiy vositalardan biri bo'lib hizmat qilishi mumkin.



Xulosa qilib aytganda, hamjihatlikda amalga oshirilayotgan islohotlar mavjud qiyinchiliklarga qaramay o'z samarasini berib kelayapti. Kichik va o'rta biznes, xususiylar tadbirkorlikning rivojlanishi yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, fuqarolarning daromadlari va farovon yashashini ta'minlashga alohida hissa qo'shmoqda. Mazkur jarayonlarning muvaffaqiyati va yuqori samarali bo'lishida davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan islohotlar strategiyasining aniq va izchil amalga oshirilganligi mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 6-oktyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiylar mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi PF-4848-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20-noyabrdagi "Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab- quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4525- son Qarori
3. Abdullayev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari.-T.Mehnat. 1997 y. 48-bet.
4. S.S.G'ulomov. Kichik biznes va tadbirkorlik. Toshkent.Moliya.2002 y.
5. Muftaydinov Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari.iqt.fan.dok...diss.T. O'zMU.2004-276 b.
6. A.A.Xaitov, F.J.Jalolov. O'zbekistonda bozor munosabatlarini shakllantirish asoslari.A.1996y. 140-bet.
7. M.M.Xayrullayev, X.Aliqulov. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. – T., 1995. – B. 68
8. Do'stjonov T., Salayev S. Kichik biznesning katta imkoniyatlari. Urganch. Xorazm , 1997. 33-bet.